

SHARTNOMA № 8.

Toshkent viloyati FVB tomonidan xavfsizlikni ta'minlash maqsadida
"Qidiruv-qutqaruv xizmati" navbatchiligini tashkil etish

2022 yil "01" umboz

Nurafshon shahri

Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Moliya vazirligining 2019 yil 31 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar organlari va tuzilmalari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 12 kk va 70-son (ro'yxat raqami 3184-son, 2019 yil 20 sentabr) buyruqlariga asosan tuzildi.

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (keyingi o'rinda "Qidiruv-qutqaruv xizmati" deb yuritiladi) Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari J.V. Majnunov bir tomondan va _____ (keyingi o'rinda "Xo'jalik organi" deb yuritiladi) nomidan _____ asosida ish olib boruvchi _____ ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar to'grisida tuzdilar:

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1). "Xo'jalik organi" ning ob'ektlarida "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan xavfsizligini ta'minlash va oldini olish uchun _____ kishilik qutqaruv anjomlari bilan xizmatlarni bajaradi. "Xo'jalik organi" ob'ektda o'zgarish bo'lgan taqdirda "Yong'in va qutqaruv xizmati"ga xabar beradi va tomonlar ushbu ro'yxatga tegishli o'zgartirishlarni kiritadilar.

1.2). "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan "Xo'jalik organi" ob'ektida kunduz kuni soat 09:00 dan 18:00 gacha navbatchiligini tashkil qiladi. SHartnomaga biriktirilgan ob'ekt, shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.3). "Xo'jalik organi" ob'ektlarida samarali xizmat olib borish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi shart.

1.4). "Xo'jalik organi" bilan "Qidiruv-qutqaruv xizmati" birgalikda ob'ektning barcha joylari uchun xavfsizligi choralariga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqadi.

1.5). Ob'ektlarning xavfsizlik holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Qidiruv-qutqaruv xizmati" ning buyruqlari va takliflari "Xo'jalik organi" uchun majburiydir.

2. "QIDIRUV-QUTQARUV XIZMATINING" VAZIFALARI

2. "Yong'in va qutqaruv xizmati":

2.1) qabul qilingan ob'ektda kunduz kuni navbatchilikni tashkil etish va amalga oshirish, ob'ektda favqulodda vaziyat aniqlanganda uni bartaraf etish uchun barcha choralarни ko'rish;

2.2) ob'ektda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini taminlash;

2.3) "Xo'jalik organi" bilan birgalikda texnika xavfsizligining texnik talablariga rioya etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash;

YURIST
U.Absalomova

2.4) texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar va "Xo'jalik organi" xodimlari o'rtaida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tushuntirish ishlarini tashkillashtirish;

2.5) "Xo'jalik organi" hududida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish taktik mashg'ulotlarida qatnashish;

2.6) ob'ektning qoniqarsiz holati to'g'risida, shuningdek "Xo'jalik organi" xodimlari tomonidan texnika xavfsizligi normalar va qoidalarni buzganligi to'g'risida tegishli choralar ko'rish uchun "Xo'jalik organi" rahbarlarini xabardor qilish;

2.7) qutqaruv vositalardan, inventarlardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

3. " XO'JALIK ORGANI "NING VAZIFALARI

3. "Xo'jalik organi" quyidagilarga majburdir:

3.1) ikki tomonlama dalolatnomada ko'zda tutilgan, ob'ektlarning xavfsizlik holatini yaxshilash uchun talab qiladigan xarajatlar asosida tadbirlarni amalga oshirish;

3.2) ushbu ko'rsatmalarda belgilangan muddat ichida ob'ektlarning holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Qidiruv-qutqaruv xizmati"ning ko'rsatmalariga, takliflariga rioya qilish;

3.3) qutqaruv vositalarni boshqa maqsadlarda ishlatilishining oldini olish;

3.4) ob'ektlarda xavfli texnologik jarayonlarning o'zgarishi to'g'risida "Qidiruv-qutqaruv xizmati"ga o'z vaqtida xabar berish;

3.5) ob'ektlarni vizual yong'inga qarshi targ'ibot bilan ta'minlash;

4. HISOBBLASH TARTIBI VA SHARTNOMA MIQDORI.

4.1 "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan obyektda ko'rsatilgan xizmati uchun to'lov miqdori tomonlar kelishuvi asosida ilovaga asosan belgilanadi.

4.2 "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan obyektda ko'rsatilgan xizmati uchun to'lov miqdorida favqulodda vaziyatlarga qarshi vositalarning amortizatsiya qiymati, zarur ehtiyyot qismlar va yoqilg'i-moylash materiallarining xarajatlari tashkil etadi va "Xo'jalik organi"ni tomonidan hisobvaraq - faktura asosida hisob-kitob qilinadi.

4.3 "Qidiruv-qutqaruv xizmati" o'z hisobiga kelib tushgan mablag'larni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida o'z ehtiyojlari uchun ishlatish huquqini o'zida saqlab qoladi (yengil, maxsus avto-ulovlar, yong'inga qarshi vositalar, avto ehtiyyot qismlar, ofis jihozlarini sotib olish, maishiy texnika, bannerlar va plakatlar, mebellar, sport anjomlari, qurilish materiallari va binolarni joriy va kapital ta'mirlanishi);

4.4 Favqulodda vaziyatlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlari uchun to'lov "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan taqdim etilgan hisobvaraq - faktura asosida joriy oyning 5-sanasidan kechiktirmay "Xo'jalik organi"ning to'lov topshiriqnomasi bilan amalga oshiriladi.

4.5 "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan navbatchiligi uchun har hisobot oyining oxirgi sanasi bilan hisobvaraq - fakturani yuboradi va "Xo'jalik organi"

tomonidan hisobvaraq - fakturani qabul qilgan kundan 5 ish kuni ichida 100% to'lovnini amalga oshiradi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1 Obyektlarda favqulodda vaziyatlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlari amalga oshirilmagan taqdirda, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,4% miqdorida jarima undiriladi, biroq umumiyligi qarzning 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak;

5.2 "Qidiruv-qutqaruv xizmati" tomonidan favqulodda vaziyatlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar kechiktirilganda yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida jarima to'laydi, biroq jarimanining umumiyligi summasi ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTRIBI

6.1 Shartnomani bajarishda paydo bo'ladigan nizolarni tomonlar muzokaralar jarayonida yoki talabnomaga muvofiq hal etiladi;

6.2 Buni amalga oshirishda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

7. SHARTNOMANING DAVOMIYLIGI

7.1 Ushbu shartnoma ____ oylik muddatga tuzilgan.

2022 yil "____" dan "____" gacha;

7.2 Tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq shartnoma yozma ravishda rasmiylashtirish orqali o'zgartirilishi, qo'shimcha kiritilishi mumkin;

7.3 Shartnoma ikki nusxada tuziladi, shundan bittasi "Qidiruv-qutqaruv xizmati"da, ikkinchisi "Xo'jalik organi" da saqlanadi.

8.TARAFLARNING HUQUQIY MANZILLARI

"Yong'in-qutqaruv xizmati" manzili	"Xo'jalik organi"
<p>Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi;</p> <p>Toshkent viloyati Nurafshon shahar, Ohangaron yo'li – 66 uy;</p> <p>Toshkent shahar, "Turonbank" AT Bankining bosh ofisi;</p> <p>Bank kodi (MFO) 00446 STIR 202560262</p> <p>H/R 2020 3000 9001 2928 9001</p> <p>Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinnbosari</p> <p></p> <p>J.Majnunov</p>	<p>"SPORT VA TURIZM XIZMATLARINI SERTIFIKATSIVAZLATASH MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONA Toshkent sh., Mirobod tum., Oybek ko'ch., 18-uy Tel.: 95 199-15-01; 95 199-15-07</p> <p>H/r: 2021 0000 7005 5095 1001</p> <p>TIF Milliy bank Mirzo Ulug'bek filiali, Bank kodi: 00895, STIR: 303601974, IFU:</p> <p></p> <p>YURIST J.Absalomova</p> <p></p>